



A.NAVOIYNING “MAHBUB – UL- QULUB” ASARIDAGI NUTQ MADANIYATIGA OID QARASHLARI

H.T.Ahmedova

*Qo‘qon DPI Fakultetlararo
tillar kafedrası
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning til xosiyatlari va ofatlari, tildan o‘rinli foydalanishning fazilatları haqidagi fikrlari sharhlangan.

Tayanch so‘z va iboralar: shirin so‘z, yaxshi til, yomon til, yolg‘on so‘z, samimiy so‘z, ifodali nutq, yumshoq so‘z.

Аннотация. В статье комментируются взгляды Алишера Навои на особенности и катастрофы языка, качества рационального использования языка.

Ключевые слова и выражения: сладкое слова, хороший язык, сквернословие, ложь, искреннее слова, выразительная речь, мягкое слова.

Annotation. The article comments on Alisher Navoi's views on the characteristics and disasters of language, the qualities of rational use of language.

Key words and word expressions: sweet words, good language, bad language, lying words, sincere words, expressive speech, soft words.

Nutq, til odamlar o‘rtasida aloqa, muomala vositasi bo‘lish (kommunikativ funktsiya)dan tashqari, xalq madaniyati va ma‘naviyati, ruhiy olam ko‘zgusi hamdir. Mir Alisher Navoiy aytganiday: “Ahli saodatlar ruhbaxsh zulomig‘a manba’ ham til, ahli shaqovat nahs kavkabiga matla’ ham til”. Ahli saodatlar uchun til – ularning sof dili, ruhiyati ko‘zgusidir, ezgu, savob ishlar eshigini ochuvchi sehrli kalitdir. Ahli shaqovat (takabbur, zolim, badfe‘l, baxil, hasadgo‘y, shafqatsiz, bag‘ritosh odamlar) ham shu tildan o‘zlarining tuban va razil ishlarida foydalanadilar.

Alisher Navoiy til xosiyatlari va ofatlari haqida fikrini davom ettirib, bunday deydi: “Tiliga iqtidorlig‘ hakimi xiradmand , so‘ziga ixtiyorsiz (ya‘ni, tilini tiymay, og‘ziga kelganini o‘ylamay-netmay gapiruvchi) – laimi najand (baxtsiz, sho‘rpehona). Tilki, fasih (fasohatli, go‘zal, nafis) va dilpazir bo‘lg‘ay, xo‘broq bo‘lg‘ay agar ko‘ngul bila bir bo‘lsa, ya‘ni tili va dili bir bo‘lg‘ay”[1].

Alisher Navoiy so‘zning ma‘no tovlanishlarini bilishga da‘vat qilib, bunday deydi: “Chuchuk tilki, achchig‘liqqa evruldi, zarari ommaviy bo‘ldi. Qandniki, musqir-boda qildilar, xarom bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarga qo‘shdur, barcha atfol tab‘iga muloyim halvofurushdur”. Ya‘ni, shirin so‘z ko‘ngillarga rohat beradi,





chuchuk soʻzni eshitgan odam goʻyo halvofurushni koʻrib quvonib ketgan bolalarday yayrab ketadi.

Alisher Navoiyning yaxshi tillilik va yomon tillilik haqidagi fikrlari notiq uchun birinchi galdagi yoʻllanmadir: “Yamon tillik andogʻkim, el koʻngliga jarohat yetkirur, oʻz boshiga ham ofat yetkirur... Xushgoʻykim soʻzni rifq va musovo bila (doʻstona va ahillik bilan) aytgʻay, koʻngulgʻa yuz gʻam keladurgʻon boʻlsa, aning soʻzidan qaytgʻay (yaʼni, gʻam qaygʻu ketgay). Soʻzda har yaxshiliklarni imkoni bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bilan oʻlukka jon berdi, goʻyo bu jihatdan erdi (yaʼni, yaxshi soʻz bilan jon bagʻishlar edi)” [2].

Alisher Navoiy fikricha, bekorchi gaplarni xunuk ovozda uzoq gapirish (xarzasi tavil va ovozi karihdur), oʻz “savti” bila qurbaqagʻa shabihdur (oʻxshashdur). “Tiliga iqtidorligʻ-hakimi xiradmand, soʻziga ixtiyorsiz-laimi najand (pastkash, shum.) Tilki, fasih va dilnazir boʻlgʻay, xoʻbroq boʻlgʻay, agar koʻngul birla boʻlgʻay”. Yaʼni, notiq tili fasohatli, chiroyli soʻzlovchi va samimiy boʻlsa, koʻngildan chiqarib aytilgan boʻlsa-tinglovchilarning ham dillariga yetib, toʻlqinlantiradi. Nutq mazmundorligi haqidagi bu fikrlar har bir notiq uchun, oʻqituvchi uchun dasturulamal boʻlsa yaxshi.

Demak, oʻqituvchi ham mavzu doirasida aniq, qisqa, dalil, isbotli, maʼnodor fikrlarni aytish zarur. Alisher Navoiyning odob, tavoze, hilm, xushmuomalalik haqida soʻzlar ekan, ushbu fazilatlar ifodali nutqning eng goʻzal namunasi. Shoir “Mahbubul qulub” asarida insoniylik haqida teran fikrlarini, goʻzal tashbehlar, oʻxshatishlar bilan dallar ekan, buning asosida til va nutqning goʻzalligi talab etilishini taʼkidlaydi. Atoqli pedagog va tilshunos Nizomiddin Mahmudov yozganidek, “Zotan, toʻgʻri yoki aniq boʻlmagan, boʻsh yoki mantiqiy boʻlmagan nutqning taʼsirchanligi haqida gapirib boʻlmaydi. Lekin, ayni paytda ifodalilik sifatining alohida, hatto hal qiluvchi oʻrin tutishini taʼkidlamoq joiz”[3].

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida nutq madaniyati, yaxshi va yomon soʻzlarning taʼsir kuchi haqida ajoyib umumnazariy, axloqiy va estetik fikrlarini bildiradi: “Koʻngulda til sinoni (nayzasining) jarohati butmas, anga hech nima marham (malham) yerin tutmas (oʻrnini bosa olmas). Har koʻngulki, til sinonidin (nayzasidin) jarohatdir, ham yumshoq soʻz va shirin til anga marham (malham) va rohatdur” [4]. (Til nayzasi jarohati bitmas, bu jarohatga hech nima malham oʻrnini bosmas, yaʼni malham boʻlolmas. Lekin faqat yumshoq soʻz va shirin til bu jarohatga malham va rohatdir). Mutafakkir yana maʼnosiz yoki bekorchi gaplarni aytuvchilarni qoralaydi, u





sergap, ezma odamlardan nafratlanadi: “Harzago‘ykim, ko‘p takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay”. Ya‘ni, harzago‘y – behuda, keraksiz, yengil-yelpi, sayoz va siyqa, bema‘ni so‘zlarni aytuvchi odamning ko‘p gapirgani tun bo‘yi hurayotgan itga qiyosdir. Bu yerda mutafakkir ziddiyatlarni hal etish quroli – dialektik fikrlash va sillogizm – qiyos usulidan foydalanadi.

Agar shu fikrni Alisher Navoiy ritorika san‘atiga xos sillogizm – qiyosdan foydalanmay, oddiy qilib, “Ko‘p va bema‘ni so‘zlarni aytish yaxshi emas”, deb qo‘ya qolsa, unchalik ta’sirli chiqmaydi, tinglovchining, o‘quvchining qalbiga yetib bormaydi. Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub”da ko‘p gapirishni ham illat, tubanlik deydi: “Oz demak – hikmatqa bois va kam yemak sihatqa bois. Og‘izg‘a kelganni demak nodon ishi va o‘llig‘a kelganni yemak hayvon ishi” [5].

Bayt:

Ko‘p demak birla bo‘limg‘il nodon,
Ko‘p yemak birla bo‘limg‘il hayvon [5].

Bu yerda tabiiy hamda ijtimoiy hodisalar o‘rtasidagi analogiya – o‘xshashlik adib diqqat markaziga olingan. U ko‘plik tushunchasi atrofida jamlangan. Ko‘plik va unga intilish inson uchun xos va mos tushunchadir. Ammo adib bu yerda ko‘plikning ijobiy emas, balki salbiy jihatlariga urg‘u bermoqchi. Shuning uchun ham “ko‘p gapirish” va “ko‘p yeyish” hodisalari maxsus ajratib olingan. Ularni yaqinlashtiradigan jihati bor. Bu ularning inson degan yuksak nomga, sharafli nomga dog‘ tushirishidan iboratdir. Ularning birinchisi kishini jamiyatning eng quyi, ya‘ni insonlikka nomunosib bo‘lgan qatlamiga tushirsa, ikkinchisi uni jamiyat a‘zolari ichida bo‘lishiga umuman imkon qoldirmaydi, endi u boshqa nom bilan atalishi kerak. Bu nom esa baytda “hayvon” so‘zi bilan ifodalab berilgan.

So‘z borkim, eshitguvchi taniga jon kiyirur, va so‘z borkim, aytg‘uvchi boshin yelg‘a berur. Tiling birla ko‘nglungni bir tut, ko‘ngli va tili bir kishi aytg‘an so‘zga but (ishon). Agarchi tilni asramoq ko‘ngulga mehnatdur, ammo so‘zni (har yerda va har vaqt) siypalamoq – boshg‘a ofatdur. Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdin qayt. Oqil chindin o‘zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas” [6]

Yolg‘onchi uyquda takallum suruvchi, ya‘ni yolg‘on gapiruvchilar xushi joyida emas, uyquda gapirganday, odamlar uyqudagi odamning gapiga ishonadimi? “Yolg‘on aytguvchi g‘aflatdatur” [7]. Afsuski, ko‘pchilik yoshlar rost so‘zning qadr-qimmatini,





yolg'onchilik og'ir gunoh ekanligini bilmaydilar. So'zlarning eng yomoni – yolg'onidir:

“So'zning asnofi (so'z turlari, nav'lari) bag'oyat cho'qdur (ko'pdur), yolg'ondan yomonroq sinfi (turi) yo'qdir”. Demak, so'zning barcha turlari orasida yolg'oni eng yomonidir. “Til va ko'ngul xo'broq a'zodur insonda, savsan va g'uncha marg'ubroq rayohindurlar bo'stonda. Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va aning bila soyir insong'a sarafroz bo'lur” [7]. Bu yerda Navoiy til so'zini ikki ma'noda qo'llaydi. Birinchisi, odamzodni hayvondin farqlovchi umuman til. Ikkinchisi, odamlarni bir-biridan farqlovchi shirin so'zlar va achchiq so'zlar ma'nosida. Chuqur ma'noli, ko'ngilga shodlik bag'ishlovchi so'zlari bilan va yengiltak, qo'pol so'zlari bilan ham odamlar bir-biridan farqlanadilar.

“Til muncha sharaf bila nutqning olati (vositasi, quroli) va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir” [7]. Ya'ni, botinan teran ma'noli bo'lsa-da, zohiran qo'pol ko'rinuvchi so'z inson boshiga ofat keltiradi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da voizlar haqida ham alohida fasl ajratgan. U “Nasihah ahli va voizlar zikrida” deb nomlanadi. Unda voizga qo'yiladigan birinchi talab sifatida imonli va e'tiqodli bo'lish ko'rsatiladi. Ularda elga nasihat qilish imkoni bor. Shuning uchun uning o'zi shaxsiy namuna ko'rsatishi kerak. Zero, “O'zi kirgondin so'ngra nasihat bila elni ham kivursa”. Buning sababi bor: “Yurumagan yo'lga elni boshqarmoq – musofirni yo'ldan chiqarmoqdur va biyobonga keturmaq va bodiyada iturmakdur” [8].

Alisher Navoiy fikricha, pand-nasihah bilan xalqni to'g'ri yo'lga solish ilmda yetuk, ma'naviyati yuksak voizlar, ustozlar, muallimlar ishidur. Va aksincha, “yo'lni yurmay kirgan yitar va g'ayri maqsud yerga yetar”. Ya'ni tariqat, ma'rifat, yo'lga kirmagan pir, ustoz bu yo'lda yo'qolar.

Bularning barchasi Alisher Navoiy ijodida notiqlik san'atiga oid go'zal namunalarning nihoyatda farovonligini, ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish imkonlarining naqadar ko'pligini ko'rsatib turibdi.

Navoiy asarlarining ifoda imkoniyati nihoyatda keng. Ular bilan atroflicha tanishish talaba (o'quvchi)larning bu boradagi tasavvurlarini, bilimlarini kengaytiradi, ulardagi ko'nikma va malakalarning shakllanishi va takomillashishiga munosib zamin yaratadi.





Navoiy asarlarining matnini notiqlik san'ati nuqtai nazaridan o'rganish bo'lajak mutaxassislarni ham, o'quvchi yoshlarni ham o'z nutqlarining boy va go'zal bo'lishi uchun, nutqiy barkamollikka erishishlari uchun eng munosib vosita va omil vazifasini ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 93-94-бет
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 94-бет
3. Н.Маҳмудов. Ўқитувчи нутқи маданияти. Тошкент; А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007 й.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 93-бет
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 108-бет
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 124-125-бет
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 94-бет
8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб. Йигирма жилдлик. –Т.: Фан, 14-жилд, 1999. 32-бет

